

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

“Tasdiqlayman”
Nizomiy nomidagi
O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti

“Kelishildi”
Maktabgacha va
maktab ta'limi
vazirligi

“Kelishildi”
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



**KASBIY (HODIY) IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI
(Kunduzgi ta'lim uchun)**

“Ijrochilik mahorati (cholg'uchilik va xonandalik)”,
“Musiq nazariyasi va solfedjio” fanlari

60110600 – “Musiq ta'limi”
bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun

Dastur va baholash mezonlari Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2026-yil 10.06.2026 yildagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan.

- Tuzuvchilar:**
- **A.Q.Lutfullayev**
O'zMPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası mudiri,
professor
 - **D.A.Karimova**
O'zMPU "Musiqiy ta'lim" kafedrası dotsenti
 - **E.B.Qobilova**
Qo'qon davlat universiteti "Musiqi nazariyasi"
kafedrası mudiri, professor
- Taqrizchilar:**
- **B.Azimov**
O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Musiqiy
pedagogika" kafedrası dotsenti, p.f.n.
 - **D.K.Qodirov**
Nizomiy nomidagi O'zMPU "Musiqiy ta'lim"
kafedrası dotsenti.
 - **M.A.Nurmatova**
UrDPI "San'atshunoslik" kafedrası dotsenti

Kirish

60110600 - Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi Respublika musiqa va san'at texnikumi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati fani dasturlari asosida tuzilgan bo'lib, bakalavr darajasini olish uchun O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari abituriyentlari uchun mo'ljallangan.

Ushbu dastur cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati, musiqa nazariyasi va solfedjio fanlari bo'yicha abituriyentlarning musiqiy ta'lim sohasida nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahoratini egallagan bo'lishi, uni namoyish eta olishi hamda musiqiy-nazariy bilimlarni hamda atama va tushunchalarni bilishi, musiqa elementlarini kuylash, tinglab aniqlab berishi va notaga qarab kuylab berishi lozim.

IJROCHILIK MAHORATI (CHOLG'U IJROCHILIGI)

Ushbu imtihonda abituriyentdan "Ijrochilik mahorati (cholg'u ijrochiligi)" mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo'yicha turlicha bo'lgan uchta musiqa asarini ijro etishi talab etiladi. Shuningdek, qo'shimcha tarzida O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi kuyini chalib, kuylab berishi, O'zbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilishi, mustaqillik yillarida respublikamizda musiqa san'atini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida o'z fikrlarini bayon etishi talab etiladi.

№	Cholg'u ijrochiligi mahorati bo'yicha ijro etiladigan asar janri va og'zaki savol-javob mazmuni	Ballar taqsimoti
1-asar	Yirik shakldagi asar (sonatina, sonata, variatsiya, konsert va boshqalar)	0 - 10
1a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 -5
2-asar	Polifonik asarlar (invensiya, fuga, prelyudiya va fuga, va boshqalar) // O'zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg'u kuylari.	0 - 10
2a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 - 5

3-asar	Xorijiy va O'zbekiston kompozitorlari ijod qilgan pyesa yoki etyud	0 - 6
3a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 - 5
4. Og'zaki javb (kollokvium)	Musiqiy cholg'ular tarixi va ularning xususiyatlari, cholg'u, musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda ahamiyati to'g'risidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 – 5,5
Jami		46,5

Izoh: kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg'ular bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi. Abituriyentlar ijro etadigan musiqa cholg'usini o'zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ijrochilik mahorati bo'yicha baholash mezonlarining taqsimoti
1-topshiriq: Yirik shakldagi asar (sonatina, sonata, variatsiya, konsert va boshqalar) uchun baholash mezonlari (10 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Notani to'g'ri o'qish	Asar matnini noaniqliklarsiz, xatolarsiz ijro etish.	2 ball
2. Ritm va metronomikaning aniqligi	Ritmik aniqlik, metronomik barqarorlikka amal qilish.	2 ball
3. Texnik jihatdan mukammallik	Barqaror barmoqlar ishlatilishi, pozitsiyalarning to'g'riligini saqlash, texnik xatolardan holi ijro.	2 ball
4. Dinamika va ifoda	Forte, piano, cresc. kabi dinamik belgilarni to'g'ri va ifodali bajarish.	1 ball
5. Frazologiya va musiqa mazmunini ochib berish	Musiqiy fikrlarning to'g'ri bo'lish, iboralarni badiiy va mantiqiy ajratish.	1 ball
6. Stil va janr xususiyatlarini his qilish	Asarning uslubiga mos talqin (klassik, romantik va h.k.).	1 ball
7. Sahnada madaniyati va umumiy ta'sir	Sahnada o'zini tutish, asarni badiiy yakunlangan holatda ijro etish.	1 ball
Jami		10 ball

1a.-topshiriq: birinchi asar yuzasidan og‘zaki javob (5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Asar mazmuni va xarakterini tushunish	Asarning emotsional mazmuni, xarakteri, ohangdorlik, dinamik o‘zgarishlar haqida tushunarli, mantiqli tahlil.	1 ball
2. Shakliy tahlil	Sonatina shakli (ekspozitsiya, rivojlantirish, repriza va h.k.) haqida asosli tushuncha va qismlararo bog‘liqlikni izohlash.	1 ball
3. Bastakor haqida bilim	Bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	0.5 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildira olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi).	1.5 ball
Jami	—	5 ball

2-topshiriq: Polifonik asarlar (invensiya, fuga, prelyudiya va fuga, va boshqalar) // O‘zbek xalq kuylari va bastakorlarning cholg‘u kuylari. (10 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Notani to‘g‘ri o‘qish	Asar matnini noaniqliklarsiz, xatolarsiz ijro etish.	2 ball
2. Ritm va metronomik aniqligi	Ritmik aniqlik, metronomik barqarorlikka amal qilish.	2 ball
3. Texnik jihatdan mukammallik	Barqaror barmoqlar ishlatilishi, pozitsiyalarning to‘g‘riligini saqlash, texnik xatolardan holi ijro.	2 ball
4. Dinamika va ifoda	Forte, piano, cresc. kabi dinamik belgilarni to‘g‘ri va ifodali bajarish.	1 ball
5. Frazologiya va musiqa mazmunini ochib berish	Musiqiy fikrlarni to‘g‘ri bo‘lish, iboralarni badiiy va mantiqiylikka ajratish.	1 ball
6. Stil va janr xususiyatlarini his qilish	Asarning uslubiga mos talqin (klassik, romantik va h.k.).	1 ball
7. Sahnada o‘zini tutish, asarni badiiy yakunlangan holatda ijro etish.	Sahnada o‘zini tutish, asarni badiiy yakunlangan holatda ijro etish.	1 ball
Jami		10 ball

2a.-topshiriq: ikkinchi asar yuzasidan og‘zaki javob (5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Asar mazmuni va xarakterini tushunish	Asarning emotsional mazmuni, xarakteri, ohangdorlik, dinamik o‘zgarishlar haqida tushunarli, mantiqli tahlil.	1 ball
2. Shakliy tahlil	Polifonik shaklni (mavzu, javob, qarama-qarshilik va h.k.) bilish va qismlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish.	1 ball
3. Bastakor haqida bilim	Bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	0.5 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildira olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi).	1.5 ball
Jami	—	5 ball

3-topshiriq: Xorijiy va O‘zbekiston kompozitorlari ijod qilgan pyesa yoki etyud. (6 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Notani to‘g‘ri o‘qish	Asar matnini noaniqliklarsiz, xatolarsiz ijro etish.	1 ball
2. Ritm va metronomik aniqligi	Ritmik aniqlik, metronomik barqarorlikka amal qilish.	1 ball
3. Texnik jihatdan mukammallik	Barqaror barmoqlar ishlatilishi, pozitsiyalarning to‘g‘riligini saqlash, texnik xatolardan holi ijro.	1 ball
4. Dinamika va ifoda	Forte, piano, cresc. kabi dinamik belgilarni to‘g‘ri va ifodali bajarish.	1 ball
5. Frazologiya va musiqa mazmunini ochib berish	Musiqiy fikrlarni to‘g‘ri bo‘lish, iboralarni badiiy va mantiqiy ajratish.	1 ball
6. Stil va janr xususiyatlarini his qilish	Asarning uslubiga mos talqin (klassik, romantik va h.k.).	1 ball
Jami		6 ball

3a.-topshiriq: uchinchi asar yuzasidan og‘zaki javob (5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Asar mazmuni va xarakterini tushunish	Asarning emotsional mazmuni, xarakteri, ohangdorlik, dinamik o‘zgarishlar haqida tushunarli, mantiqli tahlil.	1 ball
2. Shakliy tahlil	Shaklni bilish va qismlararo bog‘liqlikni izohlash.	1 ball
3. Kompozitorlar haqida bilim	Kompozitorlarning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	0.5 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildirish olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi).	1.5 ball
Jami	—	5 ball

4.-topshiriq: Og‘zaki savol-javob (kollokvium) (5,5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Musiqiy cholg‘ular xususidagi bilim	Musiqiy cholg‘ular tarixi va ularning xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni bilishi	1 ball
2. Musiqiy cholg‘ularning o‘rni	Musiqiy cholg‘u musiqaning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda ahamiyati haqidagi bilimlari	1 ball
3. O‘zbek bastakorlari haqida bilim	O‘zbek bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	1 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildirish olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi) va maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaliligi va pedagogik qobiliyati.	1.5 ball
Jami		5,5 ball

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a’zolari o‘zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e’lon qilinadi.

Abituriyentga har bir asar ijrosiga 2-3 daqiqa, 3 ta asarni ijro etish uchun uzogʻi bilan 6-8 daqiqa vaqt beriladi. Ogʻzaki savol-javoblar uchun 4-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

Cholgʻu ijrochiligi (qismi) uchun jami 12-13 daqiqagacha vaqt arjatiladi.

Tavsiyaviy asarlar roʻyxati

Fortepiano:

1. Yirik shakldagi asarlar: N.Zakirov “Sonata”, F.Nazarov “Kontsert”, M.Klementi, L.Betxoven, Y.Gaydn, V.A.Motsart, F.Shubert, M.I.Glinka, A.K.Glazunov va boshqa chet el kompozitorlarning sonatina, sonata va kontsertlari.

2. Polifonik asarlar: I.S.Baxning “Frantsuz syuitalari”, ikki va uch ovozli inventsiyalari, XTK 1-tom prelyudiya va fugalari, shuningdek G.Gendel, R.Shuman, M.I.Glinka, A.K.Glazunov, D.D.Shostakovich, G.Mushel kabi kompozitorlarning polifonik asarlari.

3. Pyesa: F.Shopen, Y.Brams, F.List, E.Grig, P.Chaykovskiy, S.Raxmaninov, M.Ashrafiy “Soʻzsiz qoʻshiq”, X.Azimov “Noktyurn”, P.Xalikov “Dutor navolari” va boshqa asarlar, shuningdek K.Cherni, M.Klementi, I.Mosheles, F.Shopen va boshqa kompozitorlarning etyudlari.

Oʻzbek xalq cholgʻularida:

1. Yirik shakldagi asarlar – Oʻzbekiston va chet el kompozitorlarining sonatina, sonata, kontsert v.b.

2. Oʻzbek xalq kuylari – “Dugox”, “Segox”, “Yolgʻiz”, “Navruzi ajam”, “Rajabiy”, “Koʻshchinor”, “Tanovar”, “Munojat” va boshqalar.

3. Oʻzbekiston kompozitorlarining asarlari - F.Vasilev obrabotkasi “Dutor bayoti”, M.Bafoev “Poema”, F. Nazarov “Poema”si, D.Zakirov “Qoʻshiq va raqs”, “Koʻrmadim” T.Jalilov, “Otmagay tong” va boshqalar.

IJROCHILIK MAHORATI (XONANDALIK)

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi boʻyicha turlicha boʻlgan uchta musiqa asarini kuylab berishlari talab etiladi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini kuylab berishi, Oʻzbekistonning mashhur kompozitorlari va taniqli bastakor-sozandalarini bilish va mustaqillik yillarida respublikamiz sanʼatni yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida oʻz fikrini bayon etishi talab etiladi.

№	Xonandalik mahorati boʻyicha ijro etiladigan asar janri va ogʻzaki savol-javob	Ballar taqsimoti
1-asar	Maqom, anʼanaviy xonandalik, oʻzbek va chet el kompozitorlarining ariya, romans, estrada qoʻshiqlari	0 - 10
1a. asar yuzasidan ogʻzaki	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori toʻgʻrisidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi	0 -5

javob	hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	
2-asar	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf "Musika madaniyati" fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlardan namunalar	0 - 10
2a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va kompozitor//bastakori to'g'risidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 -5
3-asar	O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari	0 - 6
3a. asar yuzasidan og'zaki javob	Asarning mazmuni, shakli, xarakteri va bastakori haqidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 - 5
4. Og'zaki javob (kollokvium)	Xonandalik tarixi, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va ahamiyati hamda o'zbek va chet el kompozitor (bastakor)lari to'g'risidagi bilimlari, nutqida maxsus atamalardan foydalanishi, nutqning ifodaliligi hamda pedagogik qobiliyati baholanadi.	0 – 5,5
Jami		46,5

Izoh: abituriyentlar xonandalik fanidan kasbiy (ijodiy) imtihon vaqtida o'z ixtiyoriy cholg'u asbobida chalib ijro qilishi mumkin. Abituriyentlarning iqtidorini va ijodiy qobiliyatini baholash shaffofligini ta'minlanish uchun kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida kontsertmeyster jo'rligidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Imtihon komissiyasi a'zolari abituriyentlarning bilim va ko'nikmalarini mutaxassisliklariga qarab baholaydilar. Ballar umumiy ball sifatida e'lon qilinadi. Abituriyentlarga har bir asarni ijro etish uchun 2-3 daqiqa, uchta asarni ijro etish uchun 6-8 daqiqa vaqt beriladi. Og'zaki savol-javoblar uchun 4-5 daqiqa vaqt ajratiladi. Cholg'u ijrosi uchun jami 12-13 daqiqa vaqt ajratiladi.

Xonandalik mahorati bo'yicha baholash mezonlarining taqsimoti
1-topshiriq: Vokal asar (maqom, ariya, romans, estrada qo'shig'i) ijrosi uchun baholash mezonlari (10 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Intonatsion tozalik va ovoz nazorati	Ovozning toza, barqaror, notalarni aniq ijro etilishi, diapazonni to'liq nazorat qila olishi.	2 ball
2. Nafas olish va frazelovka	To'g'ri nafas olish, frazalarni bo'lmasdan ijro etish, dramatik va musiqiy nuqtalarni urg'ulash.	1 ball
3. Diksiya va talaffuz	Matnni aniq, tushunarli va sahna nutqiga mos talaffuzda ijro etish.	1 ball
4. Musiqiy ifoda va emotsional	Asarning mazmuniga mos ifodaviy ijro, his-hayajon, xarakterga kirish.	2 ball

yondashuv		
5. Janr va uslub xususiyatlarini his qilish	Maqomda maqom ohanglari, romansda lirika, estradada sahna harakati, ariyada dramatik kuchlanish – har bir janrga xos o‘ziga xoslikni saqlash.	1.5 ball
6. Sahna madaniyati va tashqi ko‘rinish	Tana harakati, mimika, sahnadagi o‘zini tutish, kiyinish madaniyati.	1 ball
7. Umumiy badiiy ta’sir	Ijroning tinglovchiga qilgan umumiy emotsional va san’atbop ta’siri.	1.5 ball
Jami	–	10 ball

1a.-topshiriq: birinchi asar yuzasidan og‘zaki javob (5 ballik tizimda).

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Asar mazmuni va xarakterini tushunish	Asarning emotsional mazmuni, xarakteri, ohangdorlik, dinamik o‘zgarishlar haqida tushunarli, mantiqli tahlil.	1 ball
2. Shakliyl tahlil	Shaklni bilish va qismlararo bog‘liqlikni izohlash.	1 ball
3. Bastakor haqida bilim	Bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	0.5 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildirish olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi).	1.5 ball
Jami		5 ball

2-topshiriq: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-, 6-, 7- sinf “Musika madaniyati” fani dasturidan o‘rin olgan qo‘shiqlardan namunalar (10 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Notani to‘g‘ri o‘qish	Asar matnini noaniqliklarsiz, xatolarsiz ijro etish.	2 ball
2. Ritm va metronomikaning aniqligi	Ritmik aniqlik, metronomik barqarorlikka amal qilish.	2 ball
3. Texnik jihatdan mukammallik	Barqaror barmoqlar ishlatilishi, pozitsiyalarning to‘g‘riligini saqlash, texnik xatolardan holi ijro.	2 ball
4. Dinamika va ifoda	Forte, piano, cresc. kabi dinamik	1 ball

	belgilarni to‘g‘ri va ifodali bajarish.	
5. Frazzeologiya va musiqa mazmunini ochib berish	Musiqiy fikrlarni to‘g‘ri bo‘lish, iboralarni badiiy va mantiqiy ajratish.	1 ball
6. Stil va janr xususiyatlarini his qilish	Asarning uslubiga mos talqin (klassik, romantik va h.k.).	1 ball
7. Sahnada madaniyati va umumiy ta’sir	Sahnada o‘zini tutish, asarni badiiy yakunlangan holatda ijro etish.	1 ball
Jami		10 ball

2a.-topshiriq: ikkinchi asar yuzasidan og‘zaki javob (5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Asar mazmuni va xarakterini tushunish	Asarning emotsional mazmuni, xarakteri, ohangdorlik, dinamik o‘zgarishlar haqida tushunarli, mantiqli tahlil.	1 ball
2. Shakliy tahlil	Shaklni bilish va qismlararo bog‘liqlikni izohlash.	1 ball
3. Bastakor haqida bilim	Bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	0.5 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildira olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi).	1.5 ball
Jami	—	5 ball

3-topshiriq: O‘zbek va chet el xalq qo‘shiqlari (6 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Notani to‘g‘ri o‘qish	Asar matnini noaniqliklarsiz, xatolarsiz ijro etish.	1 ball
2. Ritm va metronomikaning aniqligi	Ritmik aniqlik, metronomik barqarorlikka amal qilish.	1 ball
3. Texnik jihatdan mukammallik	Barqaror barmoqlar ishlatilishi, pozitsiyalarning to‘g‘riligini saqlash, texnik xatolardan holi ijro.	1 ball
4. Dinamika va ifoda	Forte, piano, cresc. kabi dinamik belgilarni to‘g‘ri va ifodali bajarish.	1 ball
5. Frazzeologiya va musiqa mazmunini ochib berish	Musiqiy fikrlarni to‘g‘ri bo‘lish, iboralarni badiiy va mantiqiy ajratish.	1 ball
6. Stil va janr	Asarning uslubiga mos talqin (klassik,	1 ball

xususiyatlarini his qilish	romantik va h.k.).	
Jami		6 ball

3a.-topshiriq: uchinchi asar yuzasidan og‘zaki javob (5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Asar mazmuni va xarakterini tushunish	Asarning emotsional mazmuni, xarakteri, ohangdorlik, dinamik o‘zgarishlar haqida tushunarli, mantiqli tahlil.	1 ball
2. Shakliy tahlil	Shaklni bilish va qismlararo bog‘liqlikni izohlash.	1 ball
3. Bastakor haqida bilim	Bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	0.5 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildirish olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi).	1.5 ball
Jami	—	5 ball

4.-topshiriq: Og‘zaki savol-javob (kollokvium) (5,5 ballik tizimda)

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Xonandalik xususidagi bilim	Xonandalik tarixi va ularning xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarni bilishi	1 ball
2. Musiqiy cholg‘ularning o‘rni	Xonandalikning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni hamda ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlari	1 ball
3. O‘zbek bastakorlari haqida bilim	O‘zbek bastakorning hayoti, ijodiy uslubi va tarixiy kontekstdagi o‘rni haqida aniq, dalillangan ma’lumot.	1 ball
4. Nutq madaniyati	Tiniq, mantiqli, ohangdor, grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq bilan o‘z fikrini bayon qila olish.	1 ball
5. Pedagogik yondashuv	Asarni qanday tushuntirish mumkinligi haqida fikr bildirish olish (masalan, asarni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratiladi) va maxsus atamalar qo‘llanilgan nutqning ifodaliligi va pedagogik qobiliyati.	1.5 ball
Jami		5,5 ball

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a’zolari o‘zlarining ixtisoslik sohasidan kelib chiqqan holda abituriyent bilimini baholaydi. Baholar umumlashgan holda e’lon qilinadi. Abituriyentga har bir asar ijrosiga 2-3 daqiqa, 3 ta asarni ijro etish uchun uzog‘i bilan 6-8 daqiqa vaqt beriladi. Og‘zaki savol-javoblar uchun 4-5

daqiqa vaqt ajratiladi. Jami xonandalik asarlari ijrosi bo'yicha bosqichi 12-13 daqiqagacha vaqt arjatiladi.

Tavsiyaviy asarlar ro'yxati

1. O'zbek va chet el kompozitorlar operalaridan ariya, romans, estrada qo'shiqlari.

2. Umumta'lim maktabning 5-, 6-, 7- sinfning musiqa madaniyati fani dasturidan o'rin olgan qo'shiqlar.

3. O'zbek va chet el xalq qo'shiqlari – “Omon yor”, “Tanovar”, “alla”, “to'y” marosim qo'shiqlari, yalla, lapar va h.k.

MUSIQA NAZARIYASI VA SOLFEDJIO

Musiqiy tovush va uning xususiyatlari, musiqiy tizim tovushqatori. Musiqaviy soz, temperatsiyalangan soz. Tovushlarning harfiy tuzilmada ifodalanishi. Tovushlar, interval, akkordlar engarmonizmi. Nota yozuvi, nota cho'zimlari va ularga qo'yiladigan tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar, nota yozuvini qisqartirish belgilari. Metr, Ritm, sinkopa, cho'zimlarning turkumlanishi. Oddiy, murakkab, aralash va o'zgaruvchan metrlar va o'lchovlar. Oddiy va tarkibli intervallar. Diatonik va xromatik intervallar. Intervallarning engarmonik tengligi. Intervallarning aylanishi. Ohangdosh (konsonans) va noohangdosh (dissonans) intervallar. Alteratsiya. Lad. Tonallik. Turg'un va noturg'un tovushlar hamda ularning yechilishi. Major, minor va ladi. Uchtovushlik va ularning aylanmalari. Septakkord va ularning aylanmalari. Og'ishma, modulyatsiya, transpozitsiya kabi mavzulardagi nazariy materiallarni bilish.

Major, minor, xalq ladi tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzib, kuylab berish. Kalmikov va Fridkin “Birovozli solfedjio” o'quv qo'llanmasidan berilgan kuy misolini notaga qarab kuylash. Interval, akkord, lad tovushqatorlarini tinglab aniqlash.

№	Musiqa nazariyasi va solfedjio vazifalar turlari	ballar taqsimoti
1.	Nazariy materiallarni bilish.	0 – 15
2.	Major, minor, xalq ladi tovushqatorlari, intervallar, uchtovushliklar va septakkordlar hamda ularning aylanmalarini berilgan tovushdan va ko'rsatilgan tonallikda tuzish va kuylash	0 – 16,5
3.	Takt hissalarini qo'l harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash	0 – 16,5
4.	Tinglab aniqlash	0 – 15
Jami		63

Musiqi nazariyasi va solfedjio fanlari bo'yicha baholash mezonlarining taqsimoti

Mezon	Tavsif	Maks. ball
1. Major va minor	Major va minor lad turlarini bilishi	2 ball
2. Xalq musiqasi ladlari	Xalq musiqasi ladlari to'g'risidagi ma'lumoti	2 ball
3. Tovushqatorlar nima	Tovushqatorlar haqidagi ma'lumoti	2 ball
4. Intervallar	Intervallar haqidagi ma'lumoti	2 ball
5. Uchtovushliklar va ularning aylanmalarini	Uchtovushliklar va ularning aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi	2 ball
6. Uchtovushlik turlari	Uchtovushliklar turlari ma'lumotlarni bilishi	2 ball
7. Septakkord turlari.	Septakkord turlari va ularning aylanmalari haqidagi ma'lumot	2 ball
8. Ladning asosiy uchtovushliklari	Ladning asosiy uchtovushliklari haqidagi ma'lumotlarini bilishi	2 ball
9. Takt nima?	Takt haqidagi ma'lumotni bilishi	1 ball
10. Ritm nima?	Ritm haqidagi ma'lumotni bilishi	1 ball
11. O'lchov nima?	O'lchov haqidagi ma'lumotni bilishi	1 ball
12. Do major	Do majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
13. Re major	Re majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
14. Mi major	Mi majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
15. Fa major	Fa majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
16. Sol major	Sol majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
17. Lya major	Lya majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
18. Si major	Si majorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
19. Do minor	Do minor da nechta belgi borligini bilishi	1 ball
20. Re minor	Re minor da nechta belgi borligini bilishi	1 ball
21. Mi minor	Mi minor da nechta belgi borligini bilishi	1 ball
22. Fa minor	Fa minor da nechta belgi borligini bilishi	1 ball
23. Sol minor	Sol minor da nechta belgi borligini bilishi	1 ball
24. Lya minor	Lya minorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
25. Si minor	Si minorda nechta belgi borligini bilishi	1 ball
26. Nomdosh tonalliklar	Nomdosh tonalliklarni bilishi	1 ball
27. Takror tonalliklar	Paralel tonalliklarni bilishi	1 ball
28. Xarakterli intervallar	Xarakterli intervallarni bilishi	2 ball
29. Tabiiy major intervallari	Tabiiy major intervallarini bilishi	2 ball
30. Tabiiy minor intervallari	Tabiiy minor intervallarini bilishi	2 ball
31. Lad va tonallik	Lad va tonallik haqida ma'lumot	2 ball
32. Aralash va o'zgaruvchan o'lchovlar	Aralash va o'zgaruvchan o'lchovlarni bilishi	2 ball

33. Oddiy va murakkab o'lchovlar	Oddiy va murakkab o'lchovlarni bilishi	2 ball
34. Ritm va metr	Cho'zimlarning erkin ravishda bo'linishini bilishi	2 ball
35. Dominantseptakkord	Dominantseptakkord (D ₇) va uning aylanmalarini bilishi	2 ball
36. Oddiy intervallar	Oddiy intervallar. Intervallar aylanishi.	2 ball
37. Transpozitsiya	Asar tonalligini aniqlash. Transpozitsiya	2 ball
38. Modulyatsiya va og'ishma	Modulyatsiya va og'ishma haqida ma'lumot	2 ball
39. Tinglab aniqlash	Tonika, interval va akkordlarni tinglab aniqlashni bilishi	2 ball
40. Kuyning tuzilishi	Kuyning tarkibiy qismlarini bilish	2 ball
41. Melizimlar nima	Kuy bezaklarini bilishi	2 ball
Jami		63 ball

Musiqi nazariyasi va solfedjio bo'yicha abituriyentlardan musiqiy-nazariy bilimlarni aniqlash, nota asarlarning solfedjio qilib kuylash, musiqiy eshitish qobiliyatini tekshirishda jami bo'lib abituriyentga 20 daqiqa vaqt ajratiladi.

Ijodiy imtihonlar natijalarining baholash mezonlari Ijrochilik mahorati (cholg'uchilik va xonandalik)

Baholash kategoriyasi	Baholash mezonlari	1-asar uchun ball	2-asar uchun ball	3-asar uchun ball	4-javob uchun ball
Ijrochilik mahorati (cholg'uchilik)					
A'lo	Asarni to'liq ijrosi yorqin va maromiga yetkazib ijro qilish, texnik jihatdan mukammal va badiiy jihatdan ifodali.	13-15	13-15	10-11	5,5
	Og'zaki javobi to'laqonli	5	5	5	-
Yaxshi	Asar ijrosi bir oz kam yorqin bo'lib, badiiy jihatdan to'g'ri, ammo texnik jihatdan mukammal bo'lib, ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan.	10-12	10-12	8-9	4
	Og'zaki javobi to'liqsiz.	4	4	4	-
Qoniqarli	Cholg'uda ijro etish ko'nikmalari sust, nota matni noto'g'ri yodlangan	8-9	8-9	7	3
	Og'zaki javobi to'liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	3	3	3	-
Qoniqarsiz	Asar ijrosi yoddan emas yoki cholg'uda ijro etish ko'nikmalari	0-7	0-7	0-6	-

	yetarli darajada rivojlanmagan.				
	Og‘zaki javobi sust yoki yo‘qligi	-	-	-	2
Ijrochilik mahorati (xonandalik)					
A’lo	Asar ijrosi to‘liq va maromiga yetkazilgan, intonatsion jihatdan aniq, toza va ifodali.	13-15	13-15	10-11	5,5
	Og‘zaki javobi to‘laqonli	5	5	5	-
Yaxshi	Asarni badiiy ijro etishda yorqinligi bir oz kamroq, texnik ijro jihatidan me’yoriga yetmagan, ayrim noaniq intonatsiyalar mavjud	10-12	10-12	8-9	4
	Og‘zaki javobi to‘liqsiz.	4	4	4	-
Qoniqarli	Kuylash ko‘nikmalari sust, ijrosi noaniq (falsh), tonallikda turmaslik, nota matni nato‘g‘ri yodlangan	8-9	8-9	7	3
	Og‘zaki javobi to‘liqsiz va ayrim noaniqliklari bilan.	3	3	3	-
Qoniqarsiz	Asar ijrosi yoddan emas, intonatsiya falsh (musiqiy eshitish qobiliyati yo‘qligi) yoki ijro etib bera olmasligi.	0-7	0-7	0-6	-
	Og‘zaki javobi sust yoki yo‘qligi.	-	-	-	2

Musiqi nazariyasi va solfedjio

№	Baholash mezon	1-vazifa	2-vazifa	3-vazifa	4-vazifa
A’lo	Vazifaning to‘liq bajarilishi, intonatsiyasi aniq, toza, sof.	14-15	15-16,5	15-16,5	14-15
Yaxshi	Vazifaning ayrim noaniqliklar bilan bajarilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh).	12-13	13-14	13-14	12-13
Yaxshi	Materialni sust bilishi, intonatsiya ayrim joylarda aniq emasligi (falsh), lekin javob berish jarayonida intilish va qiziqishlari mavjudligi.	9-11	10-12	10-12	9-11
Qoniqarsiz	Materialni bilmasligi, intonatsiya aniq emasligi (falsh)	0-8	0-9	0-9	0-8

Ko‘zi ojjiz abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihon natijalarini baholash mezon

Yuqorida ta’kidlanganidek, 60110600 - Musiqi ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan ijodiy imtihon dasturiga ko‘ra shu yo‘nalishga oid bo‘lgan cholg‘u asbobida asar ijro etish, qo‘shiq kuylash, musiqi nazariyasi va solfedjio fanlaridan abituriyentlarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini aniqlash talablari kiritilgan.

Har bir ko‘zi o‘zi abiturient ijodiy imtihon yakuni bo‘yicha jami 5 baho to‘plash imkoniga ega. To‘planadigan baho predmetlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- a) Ijrochilik mahorati (cholg‘uchilik) – 5 baho;
- b) Ijrochilik mahorati (xonandalik) – 5 baho;
- s) Musiqa nazariyasi – 5 baho;
- d) Solfedjio – 5 baho.

Abituriyentning o‘rtacha bahosi qaydnomaga kiritiladi

Ijodiy imtihon predmetlari bo‘yicha belgilangan ballar taqsimoti

Baho	Abituriyentning bilim darajasi baholanishida quyidagilar e‘tiborga olinadi
5 - (a‘lo)	Musiqiy ta‘lim bo‘yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali, to‘liq va mukammal, mahorat bilan ijro etilsa, ijodiy fikrlay olishi, qo‘shiq kuylash bo‘yicha 2 ta turli xarakterdagi va keng diapazondagi (ovoz kengligi va kuchli namoyish etish uchun) qo‘shiq ijro etilishi, Cholg‘uda ijro tekis, nafas olish qoidalariga rioya qilib badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to‘g‘ri hamda to‘liq bajarilganligi, solfedjioni o‘qish va kuylash mahorati yuqori bo‘lsa.
4 - (yaxshi)	Musiqiy ta‘lim bo‘yicha barcha dasturdagi belgilangan asarlar ifodali ijro etilsa. Cholg‘uda ijro tekis, nafas olish qoidalariga rioya qilishdan chekinsa, badiiy jihatdan mahorat bilan bajarilsa, berilgan dasturdagi vazifalarni nazariy va amaliy tomondan to‘g‘ri bajarilsa, Solfedjioni o‘qish va kuylash mahorati yetarli bo‘lsa.
3 - (qoniqarli)	Cholg‘uda ijro uchun tanlangan asarlar biroz sodda va bir xil turdagi (xarakterdagi) asarlar bo‘lsa, ijro badiiy jihatdan nisbatan sayozroq ijro etilsa, ijroda so‘zlar yoddan aytib berilmasa, kuy ohangda va badiiylikda xatoliklarga yo‘l qo‘yilsa.
2 - (qoniqarsiz)	Cholg‘uda ijro qilingan asar matnidan chekinish, xatolarga yo‘l qo‘yilsa, badiiy tomonidan mazmunini yetkazib ijro eta olmasa, asar ijrosida matndan, sur‘atdan chiqib ketish va badiiy ijroda xatolikka yo‘l qo‘yilsa va ifodasiz ijro etilsa.

II. Kasbiy (ijodiy) imtihonni o‘tkazish tartibi

Kasbiy (ijodiy) imtihon ikkita fan doirsida o‘tkaziladi, har bir fan bo‘yicha abiturient bilimi va ijodiy mahoratiga alohida ball qo‘yiladi. To‘plagan ball natijalari umumlashtiriladi va ballar ketma-ketligida qabul komissiyasiga taqdim etiladi.

Cholgʻu ijrochiligi va xonandalik mahorati boʻyicha ijro etilgan asarlar roʻyxati (repertuar), abituriyent tomonidan yozma tarzda imzolangan holda ijodiy imtihon komissiya raisiga topshiriladi.

Musiq nazariyasi va solfedjio boʻyicha egallagan nazariy bilimlari yozma ish, diktant, tinglab kuylash, tinglab chalib berish, tinglab aniqlash kabi qator topshiriqlar asosida aniqlanadi.

Kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlarning umumiy bali – **156** ballni tashkil etadi.

1. Ijrochilik mahorati (cholgʻuchilik va xonandalik) uchun – **93** ballgacha;

2. Musiq nazariyasi va solfedjio uchun – **63** ballgacha.

Ijrochilik mahorati (cholgʻuchilik va xonandalik), Musiq nazariyasi va solfedjio boʻyicha kasbiy (ijodiy) imtixon uchun jami bir soat (60 daqiqa) vaqt ajratiladi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar boʻyicha apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari boʻyicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayʼatiga natijalar eʼlon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida yozma murojaat qilishlari mumkin.

Murojaatlar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bogʻliq boʻlgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari toʻgʻrisida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

